


## **“Bahouddin Naqshband” romani nashr etildi**

Mutaqillik bergen imkoniyatlar tufayli buyuk ajdodimiz, yirik faylasuf, din arbobi va adib Bahouddin Naqshband merosini o’rganish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1993-yilda u zot tavlludining 673 yilligi keng nishonlandi, ziyoratgohlari qayta tiklandi, obod go'shaga aylantirildi. Yozuvchilar va shoirlar, olimlarimiz bir qancha ilmiy, badiiy asarlar yozib, ularni o'z o'quvchilariga yetkazishdi.



Яңги  
Азия  
Адабиети

ТҮЛКИН ХАЙИТ

# БАХОУДДИН НАҚШБАНД

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi To'lqin Xayit uzoq yillik mehnatidan so'ng mazkur romanini kitobxonlarga taqdim etdi. Asarda Bahouddin Naqshbandning inson ma'naviy olamini boyitish, yurt ozodligi va obodligi yo'lida Amir Temur sohibqiron hazratlari bilan bir safda qadam tashlaganligi boy tarixiy, mo'tabar manbalar asosida hikoya qilinadi. Shuningdek, bu ishlarda ota-bobolarimiz, momolarimizning o'rnnini ko'rsatish maqsadida Dildorbegim kabi vatanparvarlarning qiyofalari ham o'z aksini topgan. Shu jihatdan ham mazkur asar keng kitobxonlarimizga yaxshigina sovg'a bo'ladi, deb o'ylaymiz.